

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужамппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 15 January 2026**Accepted:** 2 February 2026**Published:** 14 February 2026*Article / Original Paper***STYLISTIC PROBLEMS OF TRANSLATING TAX AND CUSTOMS
TERMINOLOGICAL UNITS FROM ENGLISH INTO UZBEK****Akhmedov Oybek Saporbayevich**Doctor of Science in philology (DSc),
professor

Abstract. This article comprehensively discusses stylistic problems arising in the translation of tax and customs terminological units from English into Uzbek. The article focuses on the specific features of official and legal style, terminological precision and preservation of normative meaning. Special attention is given to stylistic inconsistencies caused by differences between national tax and customs legal systems. The semantic and functional characteristics of tax and customs vocabulary in both languages are analyzed comparatively. Methods of ensuring equivalence, adequacy and stylistic conformity in translation are theoretically substantiated. The findings contribute to improving professional and domain-specific translation practice.

Keywords: tax terminology, customs vocabulary, stylistic issues, adequate translation, official style, terminological precision, equivalence, adequacy, semantic analysis, functional features, comparative study, legal discourse, national realia

**INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK
TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI****Axmedov Oybek Saporbayevich**Filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi soliq va bojxona terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan stilistik muammolar atroflicha tahlil qilingan. Maqolada soliq va bojxona rasmiy-huquqiy uslub xususiyatlari, terminologik aniqlik hamda mazmunning me'yoriy tavsifini saqlab qolish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro soliq va bojxona tizimlar o'rtasidagi tafovutlar sababli yuzaga keladigan uslubiy nomutanosibliklar yoritilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi soliq-bojxona leksikasining semantik va funktsional jihatlari chog'ishtirma asosda atroflicha tahlil qilingan. Tarjimada ekvivalentlik, adekvatlik va uslubiy moslikni ta'minlash usullari ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu ilmiy maqola natijalari, albatta, sohaviy tarjima amaliyotini muayyan darajada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: soliq terminologiyasi, bojxona leksikasi, stilistik muammolar, sohaviy tarjima, huquqiy uslub, terminologik aniqlik, ekvivalentlik, adekvatlik, rasmiy diskurs, semantik tahlil, funktsional xususiyat, milliy realiyalar, chog'ishtirma tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N19>

Ingliz tili SB¹ terminologiyasi bilan umumadabiy til orasida o'zaro, uzviy munosabat mavjud bo'lganligi bois terminologik tizimda umumlisoniy leksik-semantik jarayonlar kuzatiladi. Ya'ni, umumiste'moldan SB terminologik tizimiga o'tgan leksemalar o'z shaklini

¹Ushbu maqolada SB qisqartmasi "soliq va bojxona" terminlari ma'nosida keng qo'llanildi.

o'zgartirmay kognitivlik asosida sohaga oid yangi ma'nolarni ifodalashda ham faol qo'llanadi. Bunday stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan leksik birliklar soha terminlari tarjimasida birmuncha qiyinchilikni yuzaga keltirmoqda. Umuman, tilshunoslikda stilistik birliklarni u yoki bu til me'yorlariga mos, muvofiq tarjima qilish o'ta murakkab va mas'uliyatli ish sanaladi. Bu hol terminologik tizimni ham chetlab o'tmaydi. Konnotativ ma'noni o'zida aks ettiruvchi birliklar terminologiyaga xos bo'lmagan hodisadir.

Ingliz tili soliq va bojxona sohasi doirasida qo'llanadigan bunday leksemalar tarkibidagi semantik, pragmatik xususiyatlarni aniqlashtirish jarayonida ikki tilli (inglizcha-o'zbekcha) izohli lug'atlarga tayaniladi. A.V. Fedorov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Tilning har bir vositasi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita uslubiy vositalar ifodasi uchun xizmat qilishi mumkin. Har bir til hodisasi bayon etilgan fikrning semantik ko'lamidan qat'i nazar ma'lum darajada uslubiy bo'yoq kasb etishi mumkin».[1]

Bu fikrlar ingliz tili SB terminologik birliklariga ham taaluqli. Demak, lisoniy birliklarning bunday xususiyati til ma'lumotlarining barcha jihatini hisobga olgan holda, lingvistik tarjimashunoslik uchun asos bo'lib xizmat qiladigan qiyosiy stilistika bilan tarjima nazariyasini yanada yaqinlashtiradi.

Anglashiladiki, qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tili SB terminologik birliklarining mazmuniy, uslubiy va pragmatik jihatdan o'zaro funktsional mos kelish-kelmasligiga ahamiyat qaratish tarjima adekvatligini ta'minlovchi muhim omildir. Q.Musayev talqinida: "Stilistik muammolar lingvistik tarjima tarkibida muhim o'rin egallaydi. Stilistika lingvistikaning tahlil ob'ekti sifatida ko'p jihatdan tarjima bilan chambarchas bog'liqdir. Stilistikaga xos barcha xususiyatlar lingvistik tarjimashunoslikka ham to'la aloqador bo'lib, tarjimaning lisoniy tahlili masalasiga atroflicha yondashishni, chunonchi, til hodisalarining qurilish, me'yor va an'ana kabi omillar bilan bog'liqlikda tadqiq qilinishi talab qilinadi". [2]

Stilistik birliklar obrazlilikka ega bo'lganligi bois nutqning badiiy-tasvir vositalari sifatida fikrni uslubiy bo'yoqdor va jozibali qilib ifodalashga xizmat qiladi. Ular asosan adabiyotshunoslikda badiiy asar tilining ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi.

Ingliz tili SB terminologiyasida stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan terminlar mavjudligini kuzatish mumkin. Ular SB sohasiga oid terminlar bilan yondosh holda birikib, birikma termin shaklida qo'llanadi. Masalan: **brake** – umumadabiy tildagi leksik ma'nosi "tormoz", **tax brake** – "soliq to'lovlarini oshirish yo'li bilan iqtisodiyot rivojlanishini bo'g'ish". **Shield** – leksik ma'nosi "qalqon", **tax shield** – "soliq yukini kamaytirish", "soliq imtiyozi", "soliq to'lashdan himoyalash" kabi ma'nolarni o'zida aks ettiradi. Jumladan: *this is the **tax shield** provided by the debt*[3]– bunday soliq imtiyoziga kredit orqali erishildi.

*In some contexts (the analysis of financial leases, for example) depreciation **tax shields** are treated as safe, nominal cash flows and are discounted at an after tax borrowing or lending rate*[4]– Ayrim holatlarda (xususan, moliyaviy lizing tahlilida), qarz berilgandan yoki qarz olingandan so'ng amortizatsion soliq himoyasi mutlaq ishonchli nominal pul oqimi sifatida ko'rib chiqiladi va soliq stavkasidan chegirma qilinadi.

Barrier – umumadabiy tildagi leksik ma'nosi "to'siq", **customs barrier** – "bojxona bojarini oshirish yo'li orqali importni cheklash". **Haven** – leksik ma'nosi "bandargoh", SB terminologiyasida *haven* – bandargoh leksemasining *tax – soliq* termini bilan birikishi natijasida *tax haven* birikmali termin hosil bo'lgan. Ushbu termin xalqaro soliq qonunchiligiga muvofiq, chet ellik sarmoyadorlarni jalb qilish maqsadida muayyan davlat tomonidan soliq imtiyozlarini

berish yo'li orqali ularga shart-sharoitlar yaratish, soliq va bojlar eng quyi stavkada undiriladigan hudud, ma'nosini anglatadi. Keltirilgan jumlaning tarjimasiga e'tibor bering:

*It is not unusual for companies to shift their headquarters to a **tax haven** when they fear political hazards in the country in which they are based[5].*

*Ko'pincha, kompaniyalar o'zlarining mamlakatlarida joylashgan bosh idoralarini siyosiy vaziyatlar keskinlashganda **soliq imtiyozi** yaratilgan va tinch boshpana hisoblangan davlatlarga ko'chiradilar.*

Ingliz umumadabiy tilida mavjud bo'lgan *hike* leksemasi o'zbek tiliga “sayohat qilmoq, yayov sayr qilmoq, ekskursiya qilmoq” ma'nolari orqali tarjima qilinadi. Ushbu so'z *tax – soliq* terminiga birikib, **tax hike** tarzida kelishi tarjimada ancha murakkab vaziyatni yuzaga keltiradi. Chunki, bunday terminlarni so'zma-so'z tarjima qilish mutlaqo noto'g'ri ma'noni keltirib chiqaradi. Mazkur birikma termin matnda soliq termini vazifasini bajaradi.

*A **tax hike** on company-owned cars will likely further depress sales[6]– Kompaniya avtomobillariga solinadigan **soliqni oshishi** ularning sotuvini kamayishiga olib keladi.*

Terminologiyada kishilikning iqtisodiyotga oid muayyan faoliyat turlari ham o'z aksini topgan bo'lib, umumadabiy tildan terminologik tizimga chuqur kontseptual bosqich orqali o'tishi tabiiy va ijtimoiy hodisadir. Terminlar tilga, til esa kishilarga tegishli. Lingvokognitiv tadqiqotlar bevosita “**antropotsentrizm**” yo'nalishi omillari bilan chambarchas bog'liq. Antropotsentrizm ilmiy tadqiqotlarda asosiy tamoyil hisoblanib, tadqiqot ob'ekti markaziga, avvalo, inson omili qo'yiladi. Shunday ekan, SB terminologik birliklari ham bevosita *antropotsentrizm* tamoyiliga bog'liqlikda tadqiq etilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, ingliz umumadabiy tildagi **brainpower** qo'shma so'zning aynan, so'zma-so'z tarjimasida “*miya kuchi, aqliy qobiliyat, aqliy zakovat*” ma'nolari bilan talqin qilinadi. Lekin, **brainpower** qo'shma so'zi soliq sohasi termini sifatida “*soliq mexanizmini takomillashtirish borasida zehni o'tkir kishilar*”ga nisbatan qo'llanadi. Ingliz umumadabiy tildagi **brainstorming** leksemasi *aqliy hujum* ma'nosini ifodalaydi. Ammo, uni SB maxsus termini sifatida *aqliy hujum* tarzida talqin qilish mutlaqo noto'g'ri. *Brainstorming* iborasida soha termini sifatida “*sohaga oid murakkab muammoning jamoaviy muhokamasi, muammoning jamoaviy yechimi*” tushuniladi. Masalan: *when the boss doesn't know the solution of the problem he calls us all into his office for a **brainstorming** session and more often than not we find the answer.* – Qachonki boshliq muammo yechimini topa olmasa, u bizni **jamoaviy muhokama** uchun o'z idorasiga chaqiradi va biz tez vaqt ichida muammoni hal qilamiz.

Brain so'zining denotativ ma'nosi insonda taffakkur qilish organi bo'lmish “**miya**” sifatida ifodalanadi. Ammo, tarjima jarayonida badiiy tasvir vositasi bo'lgan metafora hodisasining yuzaga kelishi orqali **power** — *kuch, quvvat, storming* – *bo'ron, to'fon* leksemalari “**brain – miya**” so'ziga birikib, sub'ektga nisbatan o'ziga xos stilistik ma'no ifodalamoqda. Terminologiyada **power** – *kuch, quvvat* co'zi **taxing** “*soliq colish*” terminiga qo'shilishi natijasida *taxing power* birikmali termin hosil bo'lgan. Ushbu leksema, ya'ni **power** – *kuch, quvvat* tarjima jarayonida stilistik jihatdan biroz neytrallashtirib, “*soliqqa tortish huquqi, soliq solishni joriy etish, soliq vakolati*” kabi ma'nolarni o'zida aks ettiradi. Quyidagi jumlagi e'tibor bering:

Inglizcha: *General obligation bond is a municipal bond secured by the **taxing power** of the issuer.*

O'zbekcha tarjimasida: *Umumiy qimmatli qog'ozlar munitsipal obligatsiyalar sifatida ahamiyatga ega bo'lgani bois ularning **soliq vakolatlari** emitentlar orqali kafolatlangan.*

Ingliz umumadabiy tilida qo'llanadigan **invisible hand** so'z birikmasining kalъka tarjimai **"ko'rinmas qo'l"** shaklida talqin etiladi. Uni maxsus termin sifatida **"talab va taklif"** tarzida o'g'irish maqsadga muvofiq. **"Invisible hand – ko'rinmas qo'l"** iborasi ilk bor shotlandiyalik iqtisodchi olim Adam Smit (1723-1790) tomonidan amaliyotga kiritilgan. U o'zining iqtisodiy nazariyasiga asosan **"invisible hand – ko'rinmas qo'l"** deganda bozordagi **"talab va taklif"**ni nazarda tutadi. Olim bozor mexanizmini to'laqonli ishlash jarayonida **"ko'rinmas qo'l – talab va taklif"** erkin raqobatni muntazam shaklda boshqarishini ta'kidlaydi. Alfred Chandler tomonidan ilgari surilgan **"visible hand – ko'rinar qo'l (davlat)"** termini esa davlatning iqtisodiy jarayonlarni boshqarishdagi, tartibga solishdagi ta'siri (aralashuvi) bilan izohlaydi. Quyidagi inglizcha matnning tarjimasiga diqqat qaratamiz:

*The **visible hand** of managerial coordination had replaced the **invisible hand** of the market[7] – Bozordagi **"ko'rinar qo'l"** o'zining boshqaruv muvofiqligini **"ko'rinmas qo'l"** ga o'zgartirdi.*

Insonning tana a'zosi (somatizm) bo'lmish qo'l bilan bog'liq SB sohasiga oid terminlarni amaliyot doirasida mavjud ko'plab materiallarda uchratish mumkin. Masalan:

*Both parties have equal opportunities to hear out their counterpart's argument and come to an agreement on the business in **hand** – Ikkala tomon ham o'z sheriklarining fikr-mulohazalarini eshitib, **muhokama** qilinayotgan masalani hal qilish uchun teng imkoniyatga ega.*

Inglizcha matnda qo'llanilgan **"business in hand"** iborasini uchratgan har qanday tarjimon o'zining milliy tiliga **"biznesni boshqarish, biznesdagi ishlarni qo'lga olish"** shaklida tarjima qilishiga hech qanday shubha yo'q. Aslida ham uning so'zma-so'z (kalъka) tarjimai aynan shunday ma'noni anglatadi. Biroq, mazkur so'z birikmasini frazeologik ibora nuqtai nazardan o'zbek tiliga **"muhokama (hal) qilinadigan masala"** tarzida tabdil qilishimiz maqsadga muvofiqligi o'z-o'zidan oydinlashadi. Chunki, frazeologik iboralarning ma'nosi ularning tarkibidagi leksemalarning ma'nolariga bog'liq bo'lmaydi, tarjimada yaxlit bir ma'noni aks ettiradi.

Maqolada SB terminologik tizimiga kirib kelgan ayrim termin-leksemalar o'zi bilan turli hayvon nomlarini ham aks ettirganini keltirdik. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra ikki LSGga ajratildi:

a) uy hayvonlari; b) yovvoyi hayvonlar.

Birinchi guruhga doir **bull – ho'kiz** leksemasi iqtisodiyot, SB termini sifatida **"chayqovchi, spekulyant, birja o'yinchisi"** kabi ma'nolarni aks ettiradi. Birjadagi aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar kotirovkalari va ularning narxi oshishiga, o'ynab turishiga ta'sir qiluvchi shaxs. Quyidagi jummalarni misol tariqasida keltiramiz.

Inglizcha: *In this case, there may not be enough new **bulls** to keep the market uptrend intact. [8]*

O'zbekcha tarjimai: *Kurs narxlarida o'zgarish bo'lmaganiga qaraganda, bozorga yangi **"ho'kizlar"** kelmagan ko'rinadi, ehtimol.* **Inglizcha:** *If we succeed in **bulling** silver we shall also succeed in bearing gold to the same extent.*

O'zbekcha tarjimai: *Agar biz kumush narxini **oshirishni** uddalay olsak, u holda oltin narxini **oshirishga** ham erishamiz.*

¹Jumlada qo'llanilgan **"ho'kiz"** so'zi valyuta va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi **chayqovchi** ma'nosini ifodalab kelmoqda.

Ingliz tilidagi **he is as gentle as a lamb** iborasining negizida ikki xalqning bir xil hayotiy tajribaga asoslangan tushunchalar yotganligi bois ushbu iborani integral xususiyatga ega desa bo'ladi. Mazkur ibora tarkibida o'zbek tiliga mos keladigan leksik indikatorlar mavjud bo'lganligi sababli u o'zbek tiliga **u qo'ydek yuvvosh, u pashshaga ham ozor bermaydi** muqobili asosida tarjima qilinadi. Biroq ingliz tilining iqtisodiyot, SB terminologik tizimida uchrashi mumkin bo'lgan **lamb – qo'y (qo'zichoq)** terminini matnda uchratgan har qanday kishi, hatto, mohir tarjimon ham ikkilanib qolishi tabiiy. Bunday vaziyatlarda sohaga doir ikki tilli izohli lug'atlarga murojaat qilinsa, ushbu inglizcha leksik birlikni o'zbek tiliga termin sifatida o'girishda *“tajribasiz chayqovchi, (spekulyant)”*, *“savdoni ko'r-ko'rona olib boruvchi shaxs”* shaklida talqin etish to'g'ri ekanligi aniqlab olindi.

Tarjimashunoslikda stilistik va frazeologik vositalar bir tildan ikkinchi tilga asosan *kalʼkalash, tasviriy va muqobil variant tanlash (ekvivalentlar)* usullaridan foydalanish orqali tarjima qilinadi.

Biz shunga ishonch hosil qildikki, ingliz tili SB leksikasida qo'llanadigan stilistik birliklar shaklidagi ayrim terminlarni kontekstdan o'zbek tiliga o'girishda yuqorida qayd etilgan to'rt usulga murojaat qilish befoyda ekan. Masalan: o'zbek tilidagi **sodiq it** ma'nosini anglatuvchi **watch-dog** maxsus termin sifatida *“nazorat qiluvchi organ”*, *“insonlar huquqini muhofaza qiluvchi qo'mita, guruh, shaxs”*, shuningdek, *“korruptsiyani nazorat qiluvchi komissiya”* kabi semalarni o'zida aks ettiradi.

Bunday turdagi leksemalar terminologik ma'nolarni ifoda etishda hayvonlarni insonga foyda keltiruvchiligi xususiyatlariga asoslanadi. Ifoda etilayotgan terminlarda sub'ektga nisbatan ijobiy munosabat ifodalandi. Masalan: **sigir** – *“odamlarga foyda keltiruvchi hayvon, foydali, daromadli biznes”*. Qo'y, qo'zichoq hayvon nomlari orqali esa sub'ektga nisbatan *tavakkalchi, tajribasiz chayqovchi* singari ma'nolar ifoda etilmoqda.

Ikkinchi guruhga doir **bear** so'zini o'zbek tiliga **ayiq** deb tarjima qilamiz. Ushbu so'z maxsus soha termini sifatida *“tovar va mahsulot narxlari pasayishidan foydalanuvchi birja chayqovchisi”* tushunchasini anglatadi. Ya'ni, iqtisodchilar tilida 1) *chayqovchi*; 2) *broker, narx tushishiga ta'sir ko'rsata oluvchi shaxslar “ayiqqlar — bears”* deb ataladi.

Metafora vositasida hayvon nomlarining bunday shaklda ishlatilishi natijasida ular yordamida quyidagi so'z birikmalari ham hosil bo'lgan. Jumladan: **bear market** – *“ayiq bozori”*, *valyuta kurs narxlari tushib ketadigan bozor*. **Covered bear** – *“himoyalangan ayiq”*, *chayqovchi, aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar sotuvchi shaxs*. **Pressure on bears** – *“ayiqqlarga bosim o'tkazish”*. Maxsus soha termini sifatida esa *chayqovchilarga ta'sir o'tkazish maqsadida tashkil qilinadigan maxsus tadbir, “ayiqqlar”ni valyutaning sotuvdagi narxidan birmuncha yuqori narxda sotib olishga majbur qilish*. **Stale bear** – *“vaziyatdan chiqa olmagan ayiq”*, *ilojsiz qolgan, yutqazgan chayqovchi*. Shuningdek, **bear hug** – *“ayiqning quchoq ochishi”* birikmali terminida *“ko'zlangan foyda uchun kompaniyani xarid qilish taklifi”* ma'nosi aks etmoqda.

SB terminologiyasida **bear – ayiq** so'zi bilan bog'liq ko'plab amaliy misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan, 2003 yilda V.A. Korol'kevich va Yu.V. Korol'kevichlar hammuallifligida yaratilgan *“Anglo-russskiy slovarʼ jivogo-ekonomicheskogo yazyka”* lug'atida **bear – ayiq** nomi bilan bog'liq quyidagi ko'chma (majoziy) ma'noda ifodalangan termin birikmalar keltirilgan.

Bear – 1. (ot.) **ayiq**, qimmatli qog'ozlar yoki valyuta kurslarining tushishidan foyda oluvchi chayqovchi; 2. (fe'l) valyuta kurslarini tushishiga ta'sir qilmoq, *“o'yin”* qilmoq. **Bear – ayiq**

leksemasini fe'l va ot so'z turkumlari hamda predloglar bilan birikib kelishi va qo'llanish holatini kuzatamiz. **Bear on** – 1/.dahl qilmoq, 2/.munosabatda, aloqada bo'lmoq, bog'liq bo'lmoq, **bear out** – 1/.qo'llab-quvvatlamoq, 2/.tasdiqlamoq, **bear up** – 1/.o'z pozitsiyasida qat'iy turmoq, **bear the brunt of** – 1/.og'ir zarbani o'ziga qabul qilmoq, 2/.**go to bear** – qimmatli qog'ozlar kursining tushishga ta'sir qilmoq, **run with a bear** – 1/. leksik ma'nosi: "ayiq bilan birgalikda qochmoq", 2/. kompaniya aksiyalari kursini tushirmoq; **sell a bear** – sotmoq.

Misol: *The decision to charge for late payment or not is a matter for management judgement, and the factors mentioned above directly **bear on** the decision*– To'lovni to'lash kechikkani uchun ma'lum foiz miqdorida jarima undirilishi yoki undirilmaslgi rahbarlar ixtiyoridagi masala. Yuqorida qayd etilgan holatlar esa bevosita **qaror qabul qilinishiga** bog'liq.

*We all lost money when the business collapsed, but I bore the **brunt of** it because I had invested most*– Shaxsan men ko'p mablag' sarflagan biznesimiz kasodga uchraganligi bois barchamiz pullardan ajraldik va natijada men **qattiq zarba yedim**.

*The report **bears out** what the dealers have been saying*¹ – ma'lumot, vositachilarni (dillerlarni) nima haqida so'zlashayotganini **tasdiqladi**.

*The numbers **bear that out*** – raqamlar shuni **tasdiqlaydi**.

Hayvon nomlari bilan ifoda etiladigan, uslubiy bo'yoqdorlikka ega bunday terminlarni to'g'ri va mos (adekvat) tarjima qilish uchun tarjima qilinayotgan tilnigina emas shu tilda muloqot qiluvchi xalqning tarixni, turmush tarzi, milliy madaniy xususiyatlarini hamda SB sohasining o'ziga xos jihatlarini chuqur va teran bilish muhim. Hayvon nomlari qo'llanilgan stilistik birliklar o'zlarida ko'p ma'nolilikni mujassamlashtirgani bois ikki tilning leksik-semantik jihatidan bir-biriga muvofiq keladigan variantini tanlab tarjima qilish har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi.

Bunday stilistik birliklar SB terminologiyasiga har bir tushunchani alohida termin bilan ifodalashga terminologik tizimning imkoniyatlari yetmagani yoxud cheklangani, bir-biriga o'zaro yaqin bo'lgan ilmiy tushunchalar o'rtasidagi leksik-semantik aniqlikni belgilash zarurati natijasida kirib kelgan. Bunday holatda tarjimon o'zi ko'zlagan maqsadiga erishish uchun stilistik birliklar ishtirok etgan matnni tarjima qilishda semantik ma'noni to'liq qamrab olishi, qisman mos keladigan muqobil tarjima variantini tanlay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon ikki xalqning milliy-madaniy o'zligi, turmush sharoiti va urf-odatini yaxshi bilgan bo'lsagina mos (adekvat) tarjimaga erisha oladi.

Yuqorida qayd etilganidek, terminlarni tarjima qilishdagi uslubiy bo'yoqdorlik va ma'no ko'chish hodisasi hayvonlarning bevosita sohaga oid xatti-harakatiga asoslangan bo'lib, metafora asosida amalga oshgan. Aslida mazkur terminlar iqtisodiyot va uning tarkibiy leksik qatlamlarida qo'llanishi nuqtai nazaridan **oksimoron** (teskarilik) funktsiyasini bajarmoqda. Bunday terminlar struktur jihatdan kognitivlikka asoslangan bo'lib, ularni ekspressivlik, obrazlilik bilan uzviy bog'langan. Binobarin, stilistik birliklar insonning hayotiy kuzatishlari natijasida paydo bo'ladi. Turli xalqlar moddiy dunyoni tasavvur etishida o'xshashlik bor. Ammo, hech bir tilda ma'lum tushunchani obrazli, his-hayajonli ifoda etadigan stilistik birlik o'zga til stilistik tizimida o'zining aniq muqobiliga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda

¹Maqolada "bear – ayiq" leksemasi bilan bog'liq termin birikmalar va amaliy misollar 2003-yilda V.A.Korolkevich va Yu.V. Korolkevichlar hammuallifligida tuzilgan "Anglo-russkiy slovar jivogo-ekonomicheskogo yazyka" lug'atidan olindi.

ular turli transformatsion (leksik, pragmatik, stilistik, grammatik) usullar yordamida tarjima qilishni talab etadi.

Obrazli vositalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish asnosidagi qiyinchiliklar kelib chiqishining asosiy sababi tilning milliylik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Demak, tarjimon stilistik vositalar va frazeologik birliklar qo'llanilgan matnni tarjima qilishda o'zi ko'zlagan ijobiy maqsadga erishish uchun semantik ma'noni to'liq qamrab olishi, qo'shimcha tushuntirish, izohlardan foydalanishi, to'laqonli mos keladigan muqobil tarjima variantini tanlay olishi lozim.

L.I. Breeva va A.A. Butenko obrazli vositalarni muqobili orqali tarjima qilishning to'rt maqbul usulini tavsiya qiladi.

Bular: 1. Semantik mazmun qabul qilayotgan tilning obrazi adekvatlik parametri orqali yetkazilishi;

2. Ekspressiv mazmunning adekvatlik parametri orqali yetkazilishi;

3. Mazmunning emotsional baholovchi obraz adekvatlik parametri orqali yetkazilishi;

4. Kontekstual ma'lumot moslik parametri orqali yetkazilishini aniqlay olish.[9]

Obrazlilik bilan bevosita bog'langan terminlarga misol tariqasida quyidagilarni qayd etamiz:

“**War**” leksemasining asl ma'nosi “**urush**”. SB leksikasida esa “*jahon bozori liderligini qo'lga olish uchun kechadigan kurashda milliy bojxona tarifi va notarif choradan foydalanish*” ma'nosini anglatadi. Umumadabiy tildagi **loophole** co'zi “*tuynuk, kovak, teshik*”, “*biron-bir ishning ilojini topmoq, yo'l topmoq, topilgan imkon*” ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan. U SB termini sifatida *soliq qonunchiligida yo'l qo'yilgan kamchilik, qonunchilikning bo'sh joyi, soliqdan bosh tortish (to'lovlarni to'lamaslikni rejalashtirish)* ni ifodalaydi. Quyidagi matn tarjimasiga e'tibor beramiz:

«...as elsewhere some taxpayers try to find **loopholes** in legislation and evade taxes».

«...shuningdek ayrim soliq to'lovchilar **qonunchilikning bo'sh joyini** topishga harakat qilib, soliq to'lashdan bo'yin tovlaydilar».

Ingliz tilining yozma va og'zaki nutqida soliq to'lashdan *qochish, bosh tortish* ikki xil shaklda qo'llanilishi mumkin. Yuqoridagi inglizcha jumlada qo'llanilgan **evade taxes** - *soliq to'lashdan bo'yin tovlash* so'z birikmasi soliq to'lovchining maxsus, ongli shaklda, bila turib soliq to'lashdan bosh tortish ma'nosini ifodalaydi. Uning sinonimi bo'lgan **avoid taxes** esa **beixtiyor, bilmasdan soliq to'lashdan qochish** ma'nosini o'zida aks ettiradi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, ingliz tili SB terminologiyasida mavjud bo'lgan ayrim bir tarkibli va ko'p tarkibli terminlarning stilistik birlik sifatida shakllanishi ularni tarjima qilishda ancha muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, terminshunoslikning talab va mezonlariga bo'ysunmaydigan, emotiv-ekspressiv ma'no nozikliklarga ega bo'lgan terminlar ham mavjud. Ularni terminlar tarjima nazariyasi va qonuniyatlariga asosan jumla shaklida yoki bilvosita izohlash, tasviriy usul orqali talqin qilish maqsadga muvofiq.

Mazkur maqolada SB leksikasida ekspressivlikni ifodalovchi quyidagi terminlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin: **pill poison** – ushbu termin o'zbek tiliga tarjima qilinganda “*habdori, pilyula, pilyuladan zaharlanish*” degan ma'noni anglatadi. Biroq maxsus soha termini sifatida “*korxona tomonidan qandaydir tahdidga, xususan, inqirozga nisbatan himoya chorasini ko'rish*” tushuniladi. Shuningdek, **sleeping beauty** – “*uyqudagi go'zal*”, soha termini sifatida “*gegemon kompaniya (korxona)*” ma'nosini ifodalaydi. **Tax eater** so'z birikmasining so'zma-so'z

tarjimasi “*solliq yeguvchi shaxs*”, termin sifatida qo‘llanilganda esa “*davlat subsidiyasi hisobiga yashovchi shaxs*” tushuniladi. **Bad debts** – 1) “*yomon qarzlar*”, 2) *umidsiz qarzlar*. **Laundering** – 1) “*kir yuvish*”, 2) *mablag‘ni tozalab olish, o‘zlashtirish (o‘g‘irlash), mablag‘ni jinoiy yo‘l bilan o‘zlashtirish*, 3) *mablag‘ning birinchi kelib chiqish manbaini yo‘q qilib yuborish*. Masalan: **laundering of dough in customs house** – *bojxonadagi mablag‘ni tozalab olish, o‘zlashtirish*.

Ingliz tilida: *The key to any money laundering scheme is to get the money into legitimate bank accounts without alerting law-enforcement officials to the money’s illicit past. Once the money is in a legitimate account, it can be transferred around the world without interference from the authorities*[10]. **O‘zbek tilida:** *Noqonuniy yo‘llar bilan topilgan pulni “yuvish va tozalash”ning sxemasiga kalit, bu, o‘sha mablag‘ni huquqni muhofaza qiluvchi tashkilot vakillariga bildirmay rasmiy bank hisob raqamlariga qo‘yishdir. Mablag‘ rasmiy va qonuniy hisob raqamiga o‘tkazilgandan so‘ng uni vakolatli organlarning aralashuvisiz dunyo bo‘yicha boshqa bank hisoblariga o‘tkazish mumkin.*

Shuningdek, **pitfall** so‘zi umumadabiy ingliz tilida **tuzoq** ma‘nosini anglatadi. U SB leksikasi doirasida esa “*solliq qonunchiligining yuridik (huquqiy) normalari, solliq majburiyatlarini kamaytirishni oldini oluvchi usul, solliq to‘lovlaridan qochish*” kabi ma‘nolarni o‘zida aks ettiradi. Umumiste‘mol doirasida faol qo‘llanadigan **umbrella** so‘zi o‘zbek tiliga **coyabon**, deb tarjima qilinadi. Biroq, uni SB termini sifatida “*vujudga kelgan oldingi yo‘qotish va kamomadlarni joriy davrga o‘tkazib, joriy vaqtda va kelgusida olinadigan daromadni solliq tekshiruvlaridan yashirish usuli*” tarzida talqin etish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun Q. Musaev, tilning leksik birliklariga nisbatan birmuncha murakkab tarkibli lisoniy vositalar bo‘lmish frazeologik vositalarni tarjimada adekvat talqin etish xususida to‘xtalar ekan; bu jarayonni, tarjima amaliyotining o‘ta murakkab, shu bilan birga, juda mas‘uliyatli masalalaridan biri deb hisoblaydi. Chunki, frazeologik birliklar alohida shakllangan, ifodali, tilning turg‘un leksik-semantik birligi bo‘lib, ularda asosiy belgilar to‘liq yoki qisman semantik jihatdan in‘ikos etishi, tarkibini tashkil etgan leksik birliklarning ko‘chma ma‘no namoyon qilishi bilan izohlanadi[11].

Frazeologik birliklar nutqning tasviriy vositalari sifatida muloqotda aks etib, leksik-semantik, pragmatik va tarkibiy jihatlaridagi murakkabligi bilan izohlanadi. Frazeologizmlarning yana bir muhim tomoni ularning bir tildan ikkinchi tilga so‘zma-so‘z tarjima qilinmasligidir. Frazeologizmlarning ma‘nosi tarkibiy birikmalar orasida ishtirok etuvchi so‘zlarning birlamchi ma‘nosiga bog‘liq bo‘lmaydi. Bunday holatni ingliz tili SB terminlari misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan: **under the fire over tax bills** – *solliq qarzlariga botib ketish*, **sunset for a tax haven** – *solliq imtiyozlaridan batamom mahrum bo‘lish*, **tax evasion crackdown** (*crack down on tax evasion*) – *solliq to‘lashdan bo‘yin tovlovchi shaxslarga nisbatan keskin chora ko‘rish (ularning noqonuniy xatti-harakatlarini to‘xtatish)* va h.

Turli tillar singari ingliz va o‘zbek tillarida ham ta‘sirchan, obrazli frazeologik birliklar mavjud. Ularni tarjima qilishda adekvatlikka erishish uchun har bir tildagi frazeologizmlarni ko‘chma yoki turg‘un ma‘noda qo‘llanayotganini to‘g‘ri anglab olish talab etiladi, aks holda birikmaning ma‘nosi mutlaqo o‘zgarib ketishi, noto‘g‘ri talqin etilishi mumkin. Buning uchun eng avvalo, frazeologizmning kontekstdagi asl mazmunini aniqlab olish yoki maxsus frazeologik lug‘atlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Chunki, ular ko‘chma ma‘nolarga ega bo‘lganligi sababli ularning izohi va mazmun-mohiyati oddiy lug‘atlardan o‘rin olmaydi.

Umumadabiy til leksikasi bilan bog'liq bo'lgan, bugungi kunda SB terminologiyasiga kognitivlik asosida ko'chib o'tgan frazeologik birliklarning tahliliga alohida e'tibor qaratish lozim. Ingliz tilidagi **sats and dogs** so'z birikmasi kalka usulida **mushuklar va itlar** tarzida tarjima qilinsa, maxsus soha termini sifatida esa *"dividend foizlarini fond qiymatiga muvofiq to'lamaslik"* tushuniladi. Shuningdek, **hands off policy** o'zbek tiliga *"aralashmaslik siyosati"* tarzida o'girilsa, u maxsus termin vazifasida kelganda esa *"bank xolding kompaniya tarkibiga kiruvchi sho'ba bankning o'z faoliyatini maksimal darajada mustaqil boshqaruvni qo'lga olish"* ma'nosini anglatadi.

Anglashiladiki, umumadabiy ingliz tili leksik qatlamiga oid leksemalarning SB terminlari bilan o'zaro birikuvi natijasidagi semantik xususiyatlar, metaforik ko'chish, uslubiy bo'yoqdorlikning aks etishi orqali soha terminologik birliklari mavqeini egallashga ulgurib, terminlar vazifasini bajarmoqda.

Bu kabi uslubiy bo'yoqdor, ko'chma ma'noga ega terminlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish o'ta murakkab ish ekanligini inobatga olgan holda SB terminlarini unifikatsiyalash, terminologiyadagi har xillikni bartaraf etish, soha terminlari orasida eng optimal terminlarga aniqlik kiritib, muqobillarini to'g'ri tanlash bugungi kunning o'tkir va dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Ingliz tili SB terminlarini tarjima qilishdagi turli talqinlarni bartaraf qilishga esa terminologiya tamoyillariga tayanish orqali erishiladi. Unifikatsiyaning asosiy talablaridan biri ham terminlarning leksik-semantik xususiyatlari nuqtai nazaridan bir-biriga muvofiqligi, mosligi, iste'molda faol qo'llanishiga qarab eng optimalini tanlash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. -Т.: 2005.- 361 б.
2. Гатаулин Ш.К., Ли А.А., Стасько В.Н., Хван Л.Б. Солиқлар ва солиққа тортиш.-Т.: 1996.-367 с.
3. Бреева Л.И., Бутенко А.А. Лексико-стилистические трансформации при переводе.-М.: 2000. - 254 с.
4. Королькевич В.А., Королькевич Ю.В. Англо-русский словарь живого финансово-экономического языка. -М.: 2003.-462 с.
5. Мюллер В.К. Англо-русский словарь. — М.: Русский язык, Палек, 2010. – 563 с.
6. Осикова Л.Н. Английский язык, налоги и налогообложение. — М.: 2006.- 269 с.
7. Круглякова О.В. Русско – английский и англо – русский словарь таможенных терминов.-Владивосток: 2010. – 668 с.
8. Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии.-М.: Наука, 1986. -263 с.
9. Королькевич В.А., Королькевич Ю.В. Англо-русский словарь живого финансово-экономического языка. -М.: 2003.-462 с.
10. Федоров А.В. Основы общей теории перевода//Введение в теорию перевода. –М.: 1968.-231 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).